

NUTQIDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALARNING BILISH FAOLIYATI

Xalilova Shahnoza Ikrom qizi

Alfraganus Universiteti oliy ta’lim

tashkiloti Pedagogika va Psixologiya fakulteti, Defektologiya yo’nalishi talabasi

Utbasarova Umida Mexmanovna

*Alfraganus Universiteti oliy ta’lim tashkiloti Pedagogika va Psixologiya kafedrasi
o’qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada nutqida nuqsoni bo’lgan bolalarning diqqati xotirasi ni o’yin orqali hamda ularning bilish faoliyatini rivojlantirish to’g’risida ma’lumot berilgan.*

Kalit so’zlar: *Dislaliya, til, nutq, nuqson, komponent, diqqat, xotira, o’yin, monologik nutq.*

Аннотация: *В данной статье приведена информация о развитии внимания и памяти у детей с нарушениями речи через игры, а также о развитии их познавательной деятельности.*

Ключевые слова: *дислалия, речь, нарушение, компонент, внимание, память, игра, монологическая речь.*

Annotation: *This article provides information on the development of attention and memory in children with speech disorders through games, as well as the development of their cognitive activity.*

Keywords: *dyslalia, speech, disorder, component, attention, memory, game, monologic speech.*

Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarning bilish faoliyati, ularning umumiy rivojlanishiga va o'qish-yozish qobiliyatlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Nutq va til rivojlanishi, bola bilish faoliyatining asosiy komponentlaridan biridir, chunki til orqali bola atrof olamni tushunadi atrof muhitda bo'layotgan xodisalar haqida tushunib fikrlay oladi. Nutqdagi nuqsonlar bolaning fikrlash va mantiqiy o'ylash qobiliyatlariga ham ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun quyidagi xususiyatlar kuzatilishi mumkin: Tilning rivojlanishida kechikish: Nutq nuqsoni bo'lgan bolalarda so'z boyligi va til qoidalarini o'rganish jarayoni kechikishi mumkin. Bu esa ularning bilish faoliyatining boshqa jabhalariga, masalan, diqqatni jamlash va xotira faoliyatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Mantiqiy o'ylashning zaiflashishi: Nutqdagi muammolar bolaning mantiqiy fikrlashiga va tushunchalarni aniqlik bilan ifodalashga qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Bu o'z navbatida, masalalar va topshiriqlarga to'g'ri javob berishda qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin.

Diqqatni jamlashdagi qiyinchiliklar: Nutqida muammolari bo‘lgan bolalar tezda chalg‘ib ketishlari, biror narsa ustida uzoq vaqt davomida ishlashda qiyinchilikka duch kelishlari mumkin.

Boshqalar bilan kommunikatsiya qilishdagi muammolar: Nutqidagi qiyinchiliklar bolaning boshqalar bilan o‘zaro aloqada bo‘lishiga xalaqit berishi mumkin. Bu, o‘z navbatida, ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishda va o‘z fikrlarini ifodalashda qiyinchiliklarga olib keladi.

O‘qish va yozish faoliyatining rivojlanishi: Nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalar o‘qish va yozishda ham qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Bu tilni tushunish va ifodalash qobiliyatlari bilan bog‘liq bo‘lib, o‘qish va yozishda noto‘g‘ri talaffuz yoki imlo xatolari yuzaga keladi. Bolaning nutqi paydo bo‘lishi va rivojlanishini o‘rganish nafaqat psixologiya nuqtai nazaridan dolzarb, balki shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ham ega. Nutq kommunikativ faoliyat tarkibidagi tarkibiy element, bu esa o‘z navbatida bolaning bilish faoliyatini rivojlantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Aloqa va nutq orqali bola insoniyatning ijtimoiy-tarixiy tajribasi xazinasidan ma‘lumot olishni o‘rganadi. Maktabgacha yoshdagi og‘zaki monologik nutqni rivojlantirish maktabda muvaffaqiyatli o‘qitish uchun asos yaratadi. Maktabgacha yoshdagi bolaning nutqini rivojlantirish uchun asosiy o‘yin vazifalaridan biri bu bolaning so‘zlarini boyitish. O‘yinlarda nutq faoliyati rivojlanadi, ona tiliga qiziqish va e‘tibor tarbiyalanadi.

O‘yin bolani har tomonlama har jihatdan to‘g‘ri tarbiyalashga qaratilgan faoliyatdir. Shu bilan birga insonni barkamol avlod sifatida rivojlantiradi. O‘yinchoq bu o‘ziga xos predmet bo‘lib, bolani maqsadini bilib oladi va shu maqsadga yo‘naltirishga ko‘maklashadi. Ko‘pgina tadqiqodchi olimlar shuni isbotladiki, o‘yinchoqlar orqali bolalar kelajakda o‘zlari duch keladigan vaziyatlarga tushadi va ulardan qanday vaziyatlardan chiqishga o‘rgatadi. Bola o‘yinchoqlar bilan tanishish, o‘ynash orqali ular atrof-olam bilan tanishadi. Bolalar o‘zlari orasida bo‘ladigan munosabatlari, bir-birlariga muomala madaniyatlari, o‘zlari orasida xuddi kattalardek gaplashishlarini xoxlashadi. O‘yinchoqlar orqali bola sizga, atrofdagilarga nima demoqchiligini tushuntira oladi. Ular o‘yinchoqlar orqali borliq haqidagi bilimlarini boyitishadi. O‘yinchoq bola tug‘ilganidan to 3 yoshigacha bo‘lgan davrda katta ahamiyatga ega. Chunki ular o‘ynash davomida o‘zlarini rag‘batlantiradi, o‘yin tashkil etish qonun qoidalarini o‘rganadi: qo‘g‘irchoq bilan ular ona va qiz bo‘lib o‘ynashsa, raketa yoki moshina, samolyot bilan ular haydovchi rolini o‘ynashga kirishib ketadi.

O‘yinchoqlar orqali o‘yin qay tarzda ketayotganini va nima maqsad borligini tushuntira oladi. Bola ota-onaga ichidagi his tuyg‘ularini o‘yin orqali yetkazib beradi. Bola o‘yin mazmuni o‘yinchoqqa bog‘liqligini bilib, uning ijodiy faoliyatini shakllantiradi. Bola o‘yinchoq o‘ynash orqali o‘zini dunyosini shakllantirib, yangi g‘oyalar bilan o‘rtoqlashadi va biz shu g‘oyalarni rivojlanishiga yordam berishimiz kerak. O‘yinchoqlar bolalar uchun eng kuchli tarbiyaviy ta’sirga ega, chunki hamma narsalar xilma-xilligi bilan tasvirlanadi. Hayvonlar, o‘simliklar, transportlar, turli xil asbob-anjomlar, har xil shakllar hattoki, inson o‘zi ham qo‘g‘irchoqlar sifatida o‘yinchoqqa aytantirilgan. O‘yinchoqlar bola hayotida ilk

hayot tasavvurlarni shakllantirib, asta sekinlik bilan rivojlantiradi. Bola o‘yinchoq o‘ynab o‘sha muhitga kirishadi. Misol qilib oladigan bo‘lsak bola shifokor qo‘g‘irchog‘ini o‘ynash vaqtida o‘zini shifokorday gaplarini gapirib, bemorlarga yordam berishga urinishadi. Shu bilan birga shifokorlar ishlatadigan bolg‘acha yoki tish davolash uchun kerakli anjomlar. Bu bolalar o‘yinchoqlarni biror bir maqsadga qaratganini ko‘rsak demak bu juda yaxshi maqsadli o‘yin sanaladi. Bolalar ko‘rganlari orqali taqlid asosida shu o‘yinlarni o‘ynashadi. O‘yin nazariyasini va o‘yinchoqlarning bolaning shaxsiyatini rivojlantirishdagi o‘rni haqida L.S.Vygotskiy, A.N.Leontiev, D.B.Elkoninlar samarali izlanishlar olib brogan.

Buyuk rus olimi A. M. Gorkiy "O‘yinchoq, avvalambor bolani hayratda qoldiradi va bu tuyg‘u tushunishning boshlanishidir". Bola ulg‘aygan sari o‘yinchoqlarni saralay boshlaydi. Ular o‘zlariga manfaat keltiruvchi yoki o‘yin payti bola nimani xohlayotganiga qarab o‘yinchoqni tanlaydi. O‘yinchoq bolani har tomonlama, nutqini, xotirasini, hissiyotlarini, fikrlashini rivojlantirib, shakllantiradi. N.K.Krupskaya “O‘yinchoqlar bolalarni atrofdagi haqiqiy dunyo bilan tanishtirish, ularning hissiyotlarini rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega”deb yozgan. Bolaning nutqini rivojlantirish muhim va murakkab jarayondir. Nutqni rivojlantirishning asosiy davri - o‘yin faoliyati davri bilan bog‘liqdir. Shunga ko‘ra, mashg‘ulotlar o‘yin shaklida olib borilsa, samaraliroq bo‘ladi. Odatda o‘yin shaklida faoliyat yuritishni talab qilishning hojati yo‘q, chunki aslida har qanday o‘yin bolalarda katta qiziqish uyg‘otadi.

“Siz daraxtning qayeridasiz?” metodikasi.

Ushbu testning asoschisi Britaniyalik psixolog Pip Uilson hisoblanadi. Dastlab bu test maktab o‘quvchilari uchun qo‘llanilgan edi. U tez kunlarda katta yoshlilar uchun ham qo‘llanish mumkinligi huquqini ham qo‘lga kiritdi. Mazkur test insonning hozirgi va kelajakdagi moddiy va ruhiy holatini aks ettiradi. Siz mazkur rasmdagi odamlar shaklini kuzatishingiz mumkin. Rasmdagi odamlarning turli xildagi emosional va jismoniy holatini ko‘rib chiqing. Endi ulardan bir nechtasini tanlashingiz, ushbu tanlovingiz asosida o‘zingizning hozirgi damdagi holatingiz hamda kelgusida o‘zingizni qanday holda ko‘rishni xohlashingiz haqida bilib olishingiz mumkin.

Test natijalari: 1, 3, 6, 7 raqamlarni tanlagan bo‘lsangiz: Siz maqsad sari intiluvchan insonsiz. Siz xato qilishdan qo‘rqmaysiz va xohlagan narsangizga erishish yo‘lidagi har qanday qiyinchiliklarni yengib o‘tishga qodirsiz.

4 raqamini tanlagan bo‘lsangiz: Siz hayotiy pozitsiyasini o‘zgartirmaydigan va matonatli insonsiz. Siz kam sonli harakatlar bilan ko‘p miqdordagi omadga erishishingiz mumkin.

2, 11, 12, 18, 19 raqamlarni tanlagan bo‘lsangiz: Siz barcha bilan chiqishib keta oladigan va kirishimli insonsiz. Har qanday vaqtda yaqinlaringizni qo‘llab-quvvatlaysiz, ularga yordam qo‘lini cho‘zasiz.

5 raqamini tanlagan bo‘lsangiz: Sizning qalbingiz xuddi tanangiz singari juda ham charchagan, hayotiy zahira kuchlaringiz kamayib bormoqda.

9 raqamini tanlagan bo‘lsangiz: Siz - quvnoq, ko‘ngil ochishni xush ko‘radigan va yolg‘izlikni yoki zerikishni bilmaydigan insonsiz.

13 va 21 raqamlarni tanlagan bo‘lsangiz: Siz "ichimdagini top" deydigan va hatto eng kichik ko‘ngilsizliklarni ham yurakka yaqin oladigan insonsiz. Siz odamlar bilan muloqot qilishdan qochasiz.

8 raqamini tanlagan bo‘lsangiz: Siz yolg‘izlikni sevasiz, o‘zligingizga, o‘z shaxsiy dunyoyingizga ketishni xohlaysiz.

10 va 15 raqamlarini tanlagan bo‘lsangiz: Siz har qanday holatga oson moslasha olasiz, o‘zingizni qoniqtiradigan hayotiy o‘ringa egasiz, shuningdek ruhiy jihatdan ham baquvvatsiz.

14 raqamini tanlagan bo‘lsangiz: Siz emosional jihatdan xotirjam emassiz va ichki qarama-qarshiliklarni yengishga kuch sarflamoqdasiz.

20 raqamini tanlagan bo‘lsangiz: Siz o‘ziga juda ham yuqori baho beradigan insonsiz. Siz yetakchilik xususiyatiga egasiz va o‘zingizni fikringizdan boshqasini qabul qilishni xohlamaysiz.

16 raqamini tanlagan bo‘lsangiz: Siz har doim boshqa odamlarni qo‘llab-quvvatlashdan charchagansiz, agar e‘tibor bergan bo‘lsangiz.

17 raqamiga e‘tibor bergan bo‘lsangiz: Siz yaqinlaringiz tomonidan qo‘llab-quvvatlanmoqdasiz.



XULOSA

Logopediya - maxsus pedagogika - korreksion pedagogika fanining bir sohasidir. Logoped ham boshqa fan o‘qituvchilari kabi ta‘lim va tarbiya shakllarining mohiyatini,

maqsad va mazmunini, usul hamda vositalarini, prinsiplarini yaxshi egallab, ularni amalda qo‘llay olishi kerak.

Logoped bolalarning psixologik qobiliyatlarini hisobga olishi kerak. Bolalarni o‘z kuchiga ishonitirishi, mashg‘ulotlarga havasini uyg‘ota bilishi, material bayoni vaqtida ularning diqqatini tola jalb qila olish, materialni esda saqlab qolish yo‘llarining (mashq, ko‘rgazmali qurollardan foydalanish, mustaqil ish, suhbat, grammatik o‘yin kabi vositalarni) qo‘llanishi o‘qitish samaradorligini yanada oshiradi. Inson idrokining mazmuni, fikri, nutqi orqali shakllanadi. Bolalar logoped tushuntirgan materiallarni eshitib, yozganlarini ko‘rib, kuzatib, mushohada yo‘li bilan o‘zlari fikr yuritadilar va berilayotgan bilim-malakalarni mustahkamlab o‘zlashtirib boradilar. Moddiy dunyodagi narsa va hodisalar ongimizda aks etib, ularning barchasi so‘z shaklida ifodalanadi, til hodisalari vositasida namoyon bo‘ladi. Inson o‘zi ko‘rgan va ta’sirlangan buyum yoki voqealarni so‘z yordamida nomlab, ularning mazmuni haqidagi ta’surotlarni obrazlar, fikrlar, tushunchalar, tasavvurlar ko‘rinishida anglash, ifodalash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Har qanday hodisaning miyyada aks etishi va ongda mustahkam o‘rnashib qolishida nutq yetakchi vosita hisoblanadi. Modomiki shunday ekan, nutq aloqa bog‘lash jarayonida tafakkur kuragi bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga aloqa jarayonida nutqni ifodalash, biror narsani bildirish, anglatish va ta’sir ko‘rsatish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Fikrlash qobiliyati nutq negizida paydo bo‘ladi. Nutq kishi tafakkurining rivojlanish darajasini ham belgilab beradi Nutqdagi kamchilik bolaning tafakkuri, xotirasi, diqqati va boshqa ruhiy jarayonlarning rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. "Maxsus hissiy rivojlangan bolalarni tarbiyalashda yordam berish (erta yosh)". Baenskaya E.R., Terevinf Moskva 2007 yil.
2. Lex.uz/.O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. Mirziyoyev Toshkent sh., 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son.
3. Ayupova.M.Y. —Logopediya|| O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyatlashriyoti Toshkent – 2007.
4. Ayupova.M.YU —Korreksion ishlar metodikasi|| Ma‘ruza matni .T-2001
5. L.I. Belyakova, YE.A. Dyakova —Logopediya Zaikaniye|| xrestomatiya - Eksmo-Press||, 2001.
6. .Z.Ibodullayev Asab va ruhiyat.-T,:2015
7. M.Ayupova Logopediya - T,: 2014
8. .Z.Ahmedova, M.Ayupova, M.Xamidova Logopedik o‘yin - T,: 2007